

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

"KELISHILGAN"

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza
markazi direktori



A.Xalilov

2025-yil 30-aprel

"TASDIQLAYMAN"

Yuridik kadrlarni qayta
tayyorlash va malakasini
oshirish instituti direktori



Y. Kanyazov

2025-yil 30-aprel

**"SUD EKSPERTLIK FAOLIYATINING
TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI"**

fani bo'yicha dual ta'lim shakli asosida qayta tayyorlash kursining

O'QUV DASTURI

Toshkent – 2025

I. O'QUV KURSINING DOLZARBLIGI VA OLIY KASBIY TA'LIMDAGI O'RNI

“Sud ekspertlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari” qayta tayyorlash kursining **O'quv dasturi** (keyingi o'rnlarda –O'quv dasturi deb ataladi) – O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarini malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to'g'risida»gi 206-sonli, 2025-yil 19-martdagи “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari” to'g'risidagi 171-son qarorlariga, 2020-yil 24-martdagи “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 180-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari sud ekspertlarini (bundan keyin matnda Sud ekspertlari deb yuritiladi) qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibi to'g'risida”gi Nizomga muvofiq, sud ekspertlarini qayta tayyorlashga qo'yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan.

O'quv dasturi tarkibida sud ekspertlarining qayta tayyorlashning dolzarbliji va oliy kasbiy ta'lim dasturidagi o'rni, maqsadi, vazifalari va o'rganadigan muammolari, sud ekspertlarining qayta tayyorlashga jalb qilingan mutaxassislar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tasnifi, nazariy, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari hajmi va mazmuni, metodik tavsiyalar, mavzuviy rejalar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va didaktik vositalar ro'yxatini qamrab olgan.

O'quv dasturi sud ekspertlarini qayta tayyorlash va sohaviy (jinoyat, jinoyat-prosessual, fuqarolik, fuqarolik-prosessual, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, iqtisodiy-prosessual va ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi) kodekslarda prosess ishtirokchilari bo'lganliklari va isbotlash manbai hisoblangan ekspert xulosalari berishlarini inobatga olib, ularning huquqiy sohada professional faoliyat yuritishga tayyorlashni nazarda tutadi. Bundan tashqari sud ekspertlarining ish faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy sohadagi xatolarni oldini olishni maqsad qilib oladi.

II. O'QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI

2.1. “Sud ekspertlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari” kursi kompleks ilmiy-texnik va pedagogik tabiatga ega va shu sababli ushbu kursining **asosiy maqsadi** - sud ekspertlarida sud ekspertlik faoliyati sohasida chuqr nazariy bilimlarni hamda ushbu faoliyatni qonunchilik talablariga mos hamda samarali

tashkil qilish va o'tkazish borasidagi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, kurs sud-ekspertlik faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini o'rgatish, nostonart ekspertlik vaziyatlarda tegishli qarorlar qabul qila olish qobiliyatini shakllantirishga zamin yaratadi.

2.2. "Sud ekspertlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari" kursining asosiy vazifalari:

- tinglovchilarni sud ekspertizasiga oid davlat siyosati va uning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini o'rgatish;
- tinglovchilarni sud ekspertizasi faoliyatini tartibga soluvchi prosessual qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati hamda ularni amaliyotda qo'llash tartibi bilan tanishtirish;
- tinglovchilarni sud ekspertizasiga oid mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi mavjud ilmiy axborot resurslari, ilmiy va o'quv adabiyotlar bilan tanishtirish;
- tinglovchilarni muayyan sud ekspertizasining shakllanish bosqichlari to'g'risida, zamonaviy sud ekspertizaning so'nggi yutuqlari va imkoniyatlari haqida dolzarb axborot bilan ta'minlash;
- tinglovchilarda mustaqil ravishda sud ekspertizasini o'tkazish va sud ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan malakan shakllantirishdan iborat.

III. SUD EKSPERTLARINI QAYTA TAYYORLASHGA QUYILADIGAN TALABLAR

Umumiy talablar:

Konstitusiya va qonunlarda belgilangan asosiy prinsiplar va qoidalarni bilish, qonun hujjatlari normalarini to'g'ri anglash va qo'llash qobiliyati;

sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyati;

ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyati;

turli vaziyatlarga nisbatan ruhiy barqarorlik.

Maxsus talablar:

sud ekspertlari konstitusiya va qonunlarda belgilangan asosiy prinsiplarni va qoidalarni, qonun hujjatlari normalarini to'g'ri anglashi va qo'llashni bilishi;

sud ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyatining shakllanishi;

ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatining takomillashi;

turli vaziyatlarga nisbatan ruhiy barqarorlikni shakllantirishi;

sud ekspertlarning ushbu normalarni qo'llay olish amaliyotini shakllantirish va takomillashtirishi;

ekspertlarni sud-huquq islohotlarining mohiyatini va ustuvor yo'nalishlaridan hamda jamiyat va davlat hayotida yuz berayotgan siyosiy-huquqiy islohatlardan

xabardor qilish;

sud ekspertizasining tashkiliy-huquqiy asoslari, sud ekspertizasining tushunchasi, predmeti, sud ekspertlik faoliyatining ob'yekti va sub'yektlari, sud ekspertlik tadqiqotlari, ekspert xulosasining shakli, tuzilishi va uni rasmiylashtirish hamda ekspertlik faoliyatida ekspertlar duch keladigan huquqiy vaziyatlarni to'g'ri baholashi va sharhlashi, olingan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashi, prosessual hujjatlarni to'g'ri tuzishi, ekspertizalarni tayinlash va o'tkazishda uchraydigan xatolarni aniqlashi va bartaraf etish bo'yicha *nazariy bilimlarga ega bo'lishi*;

olgan nazariy bilimlaridan uslubiy va amaliy vazifalarni hal etishda, jinoyat-prosessual, fuqarolik prosessual, iqtisodiy prosessual, ma'muriy javobgarlik va ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslar hamda kriminalistika sohasidagi bilimlaridan foydalanish *amaliy ko'nikmalarni egallashi*;

ekspert xulosasi/mutaxassis fikrini berishda prosessual talablarga to'liq javob beradigan ilg'or yuridik dalil manbasi hisoblangan hujjatni shakllantirish, qayta ekspertiza tayinlanganda birlamchi ekspertizaning huquqiy sohadagi kamchiliklarini topa olish va tegishli tartibda tuzatish *malakalarini egallashi kerak*.

“Sud ekspertlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari” kursining MAVZULAR REJASI

T/r	Mashg'ulotlarning mavzusi	Jami o'quv soatlari	Shu jumladan,		
			Ma'ruba	Seminar	Amaliy (laboratoriya)
1.	Sud-ekspertlik faoliyatining nazariy asoslari	2	2	-	-
2.	Sud-ekspertlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari	4	2	2	-
3.	Sud-ekspertiza muassasalari va tashkilotlari	2	2	-	-
4.	Sud eksperti sud-ekspertlik faoliyatining sub'yekti sifatida	2	2	-	-
5.	Sud ekspertizalarni o'tkazish tartibi	4	2	2	-
6.	Ekspertiza (tadqiqotlar) natijalarini rasmiylashtirish	4	2	2	-
7.	Sud-ekspertlik faoliyatining tashkiliy, ilmiy-uslubiy va axborotli ta'minoti	2	2	-	-
8.	Sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazishda uchraydigan xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari	2	2	-	-
Yakuniy nazorat		2	-	-	-
Jami		24	16	6	-

IV. ASOSIY NAZARIY QISM (MA`RUZA MASHG`ULOTLARI)

1-Mavzu. Sud-ekspertlik faoliyatining nazariy asoslari

“Sud-ekspertlik faoliyati” tushunchasi va huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplari. Sud ekspertizasining predmeti, ob`yektlari va uslubiyoti.

2-mavzu. Sud-ekspertlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunining ahamiyati, maqsadi va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid Farmon va qarorlaridan kelib chiqadigan vazifalar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston REspublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi REspublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 206-son Qarorining mazmun-mohiyati.

3-Mavzu. Sud-ekspertiza muassasalari va tashkilotlari

Davlat sud-ekspertiza muassasalari va ularning turlari. Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari. Sud-ekspertiza muassasalari rahbarlarining vakolatlari. Sud ekspertiza muassasalar va tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi. Sud ekspertiza muassasalarining xalqaro hamkorligi.

4-Mavzu. Sud eksperti sud-ekspertlik faoliyatining sub`yekti sifatida

“Sud eksperti” tushunchasi va unga qo‘yiladigan malakaviy talablar. Sud ekspertining huquq va majburiyatlar. Sud ekspertlarining malakasi va huquqiy bilimlarini oshirish. Nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarini qayta tayyorlash.

5-Mavzu. Sud ekspertizalarni o‘tkazish tartibi

Sud ekspertizalarni o‘tkazish asoslari va muddatlari. Sud ekspertizalarining tasniflanishi. Sud ekspertizalarining prosessual turlari. Sud ekspertizalari o‘tkazilayotganda prosessning boshqa ishtirokchilarining hozir bo‘lishi masalalari.

6-Mavzu. Ekspertiza (tadqiqotlar) natijalarini rasmiylashtirish

Ekspertning xulosasi. Ekspertning xulosasini tuzish tartibi. Xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi dalolatnoma. Xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi dalolatnomani tuzish tartibi.

7-Mavzu. Sud-ekspertlik faoliyatining tashkiliy, ilmiy-uslubiy va axborotli ta'minoti

Sud-ekspertlik faoliyatini tashkiliy va ilmiy-uslubiy ta'minoti. Sud-ekspertlik faoliyatini axborotli ta'minoti.

8-Mavzu. Sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazishda uchraydigan xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Sud ekspertlik faoliyatidagi xatolar tushunchasi va ularning tasniflanishi (prosessual turdag'i, gnoseologik (mantiqiy) va harakatdag'i (operasion) xatolar). Sud ekspertlik faoliyatida uchrab turadigan xatolarning ob'yektiv va sub'yektiv sabablari. Sud ekspertlarining xatolarini aniqlash mumkin bo'lgan holatlari. Sud ekspertizasining turidan qat'i nazar, sud ekspertlari xatolarining oldini olish bo'yicha yondashuvlar.

V. SEMINAR MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Seminar mashg'ulotlarida tinglovchilar o'z bilimlarini chuqurlashtirib, ular bo'yicha o'z fikrlarini mustaqil ifoda eta olish ko'nikmalari, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib boradilar. Buning uchun o'qituvchi mashg'ulotlar jarayonida muammoli, bahsli vaziyatlarni yaratishi lozim bo'ladi.

O'qituvchi berilgan savolga javob berish jarayonida tinglovchi tomonidan hayotiy misollar keltirish, ularni hozirgi zamon voqyea-hodisalari bilan bog'lab borish katta ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar davomida jahonda sodir bo'lgan voqyea-hodisalar bo'yicha tinglovchilarda mustaqil savollar, testlar tuza olish hamda qo'yilgan savollarga to'g'ri, aniq javob berish ko'nikmalarini rivojlantirib borish tavsiya etiladi.

VI. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN KO'RSATMA VA TAVSIYALAR (O'quv rejasida bu kurs uchun ko'zda tutilmagan)

VII. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

O'quv kursi bo'yicha o'quv materiallarining kengroq egallash va tinglovchilar dunyoqarashini boyitish maqsadida o'qituvchilar tomonidan tinglovchilarga mustaqil ta'lim uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi. Tinglovchilar mustaqil ta'limda kursning hususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha kurs boblari va mavzularini o'rGANISH;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash.

Tavsiya etiladigan mustaqil ishlarning taxminiy mavzulari:

“Sud-ekspertlik faoliyati” tushunchasi va huquqiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplari.

Sud ekspertizasining predmeti, ob’yektlari va uslubiyoti.

O‘zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunining ahamiyati, maqsadi va vazifalari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid Farmon va qarorlaridan kelib chiqadigan vazifalar.

Davlat sud-ekspertiza muassasalari va ularning turlari.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari.

Sud-ekspertiza muassasalari rahbarlarining vakolatlari.

“Sud eksperti” tushunchasi va unga qo‘yiladigan malakaviy talablar.

Nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarini qayta tayyorlash.

Sud ekspertizalarni o‘tkazish asoslari va muddatlari.

Sud ekspertizalarining tasniflanishi.

Sud ekspertizalarining prosessual turlari.

Ekspertning xulosasi.

Xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi dalolatnama

Sud-ekspertlik faoliyatini axborotli ta‘minoti.

Sud ekspertlik faoliyatidagi xatolar tushunchasi va ularning tasniflanishi.

Sud ekspertlik faoliyatida uchrab turadigan xatolarning ob‘yektiv va sub‘yektiv sabablari.

Sud ekspertlarining xatolarini aniqlash mumkin bo‘lgan holatlar.

VIII. O‘QUV VA ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTLARI

(O‘quv rejasida bu kurs uchun ko‘zda tutilmagan)

IX. LABORATORIYA VA KURS ISHLARI

(O‘quv rejasida bu kurs uchun ko‘zda tutilmagan)

X. O‘QUV DASTURINI O‘ZLASHTIRISH VA TA’LIM JARAYONLARINI TA’MINLASHGA MO‘LJALLANGAN O‘QUV-METODIK MATERIALLAR

O‘quv jarayonini tashkil etish:

O‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, masofaviy ta’lim hamda o‘quv mashg‘ulotlarining interfaol “aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamoa bo‘lib ishlash” hamda bilim va ko‘nikmalar berishning boshqa zamonaviy shakllari joriy etiladi.

O‘quv materiallari:

ma‘ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va kurs bo‘yicha o‘quv qo‘lanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slaydlar, prezентasiyalar va h.z).

O'quv-metodik materiallar:

test (yoki nazorat savollari) yohud masofaviy topshiriqlar; amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazus va h.z.).

O'quv dasturini amalgalashish uchun zarur texnik ta'minoti: shaxsiy kompyuter – o'qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi; multimedia qurilmasi, ekran smart-televizor.

XI. YAKUNIY NAZORAT

O'quv dasturining barcha mavzulari bo'yicha yakuniy nazorat test shaklida o'tkaziladi va baholanadi.

XII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni kat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.

Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – 508 b.

Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 400 b.

Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. – 452 b.

Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.

NORMATIV-HUQUQIY XUJJATLAR VA BOSHQA ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. — URL: <https://nrm.uz/contentf?doc>.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. — URL:<https://lex.uz/docs/111460>.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-prosessual kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 02/18/FPK/0612-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son;

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son; 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son, 30.01.2018-y., 03/18/463/0634, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son, 21.07.2018-y., 03/18/485/1552-son, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son, 25.07.2018-y., 03/18/487/1569-son, 10.2018-y., 03/18/495/2029-son, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son, 23.10.2018-y., 03/18/503/2080-son;

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son;

O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prosessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018-y., 02/18/IPK/0623-son, 27.07.2018-y., 03/18/488/1579-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son;

«Sud ekspertizasi to‘g‘risida»: O‘zbekiston Respublikasining qonuni (2010-yil 1-iyun, O‘RQ-249-son) / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2010. – 22-son. – 173-m. — URL: <https://lex.uz/docs/1633102>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Sud ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2145-son qarori / Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19-yanvar 2019. 07/19/4125/2510-son. — URL: <https://lex.uz/docs/4172023>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6256-son Farmoni / Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 06/21/6256/0636-son.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 5-yanvardagi “Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 5-son qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2017-y., 09/17/960/0355-son; 16.01.2019-y., 09/19/34/2486-son; 28.12.2020-y., 09/20/810/1673-son. — URL: <https://lex.uz/docs/1727079>.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 206-son qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 338-son qarori // (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.04.2019-y., 09/19/338/3003-son).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagи “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 180-son qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son.

INTERNET SAYTLAR VA DAVRIY NASHRLAR:

- <https://lex.uz>
- <https://www.norma.uz/>
- <https://advice.uz/>
- <https://huquqiportal.uz/>
- <https://strategy.uz/>